

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI

GENDER TARBIYA

O‘quv-uslubiy majmua

Namangan – 2023

Tuzuvchi:

M. Mo'ydinova

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta
o'qituvchisi

Ushbu majmua Namangan davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil "____" _____ dagi ____- sonli majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

1	O'quv materiallar.....
	a) Ma'ruzalar bo'yicha o'quv materiallar.....
	b) Seminar mashg'ulotlar bo'yicha o'quv materillar.....
2	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.....
3	Glossariy
4	Test.....
	Ilovalar.....
	Ishchi fan dasturi.....

KIRISH

“Gender tarbiya” o’quv kursi “ oliy ta’lim talabalarini gender tarbiyaning asoslari bilan tanishtiradi; asosiy tushunchalar mamlakat va dunyodagi gender tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari va uning o'zgarish tendentsiyasi; gender tarbiyasi tadqiqotlarining vujudga kelishi va rivojlanishi, gender tushunchasining mazmun mohiyati, gender ijtimoiy-demografik kategoriya sifatida, gender identliklik, gender tarbiyaning jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati, gender tarbiyaning asosiy nazariy va aksiologik paradigmalari haqida tushuncha beradi, “Gender tarbiya” kursida asosiy e’tibor talabalarda gender tarbiya haqidagi, gender tushunchasining shakllanishi, gender haqidagi ilmiy tasavvurlarini shakllantirishga qaratilgan.

Kursning maqsad va vazifalari: o'qitish natijasida talabalar gender tarbiya haqidagi bilim va ko'nikmalar; oiladagi vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish, mamlakat va dunyo va uning o'zgarish tendentsiyalari haqida tasavvurga ega bo'lish, oila sotsiologiyasining nazariy va aksiologik paradigmalari, tadqiqot yo'nalishlari, sohasidagi bilimlarni egallab, uning asosini o'zlashtirib, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishlari kerak.

MA'RUZA MASHG'ULOTI

1-mavzu. Gender tarbiyasi tenglik va barqarorlik omili sifatida

Reja:

1. Gender tarbiyasi tadqiqotlarining vujudga kelishi va rivojlanishi.
2. Gender tushunchasining mazmun mohiyati
3. Gender ijtimoiy-demografik kategoriya sifatida.
4. Gender identliklik.
5. Gender tarbiyaning jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati.

Gender tarbiyasi tadqiqotlarining vujudga kelishi va rivojlanishi. Gender tushunchasi. Gender tarbiyasi tushunchasiga oid mavjud nuqtai-nazarlar va yondashuvlar. Biologik va ijtimoiy jins tushunchalari. Gender ijtimoiy-demografik kategoriya sifatida. Gender tarbiyada o'xshashlik. Gender mafkurasi. Gender roli. Genderdagi stratifikatsiya

Rivojlanishning eng o'tkir muammolaridan biri tenglikka erishishdir. Bundan ikki yuz yil avval buyuk inqiloblar ta'siri ostida hukmdorlarning va fuqarolarning tengsizligi yoki erkaklarning xotin-qizlar ustidan hukmronligi ilohlar tomonidan yo'llangan deb hisoblash an'anaviy qarashlari susaya boshladi, ozodlik va barcha odamlarning tengligi g'oyalari tarqala boshladi. Xotin-qizlarning ahamiyati, ularning jamiyatdagi roli va maqom to'g'risidagi qarashlarda o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Qayd etilganidek, rivojlanish jarayonini sayyora ahlining yarmidan ko'pini tashkil etadigan xotin-qizlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. 40 yillik tarixga ega rivojlanish bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyati katta tajribaga ega, va ushbu tajriba tahlili erkaklar va xotin-qizlar tengligiga erishish, kambag'allikni yo'q qilish va har bir insonning to'laqonli rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha bir necha asosiy xulosalarni chiqarish imkonini berdi. Rivojlanish bo'yicha xalqaro tashkilotlarning Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng vujudga kelgan birlamchi yondashuvi moliyaviy yordam orqali rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy ahvolini yaxshilash va ekspert xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq edi. Biroq, bu turdagi yordam mahalliy aholi o'rtasida boqimlik kayfiyati yuzaga kelishiga sabab bo'ldi, yordam yo'naltirilgan mamlakatlar rivojlanishining o'ziga xosligi va madaniyati deyarli e'tiborga olinmadi, bu esa oqibat natijada iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri zarar etkazishi

mumkin edi. Tashqaridan yordam ko'rsatishning salbiy oqibatlarini o'rganish iqtisodiy rivojlanishning adolatli, barqaror tizimlarini yaratish va ushbu tizimlardan samarali foydalanishni tashkil etishga yangicha yondashuvning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Rivojlanish bo'yicha xalqaro agentliklarning faoliyatiga yangicha yondashuv tashqaridan kiritilgan rivojlanishga imkon yo'qligini anglash bilan bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, rivojlanishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning maqsadlari, mahalliy aholining jalb etilishi, mahalliy talab va ehtiyojlarning hisobga olinishiga bog'liq. Shu talabga ko'ra xalqaro tashkilotlar tomonida mahalliy aholini rivojlanish dasturlari va loyihalariga nafaqat rivojlanish bosqichida, balki ularni ishlab chiqish va baholash bosqichida ham jalb etish uslubiyoti ishlab chiqildi. Mahalliy aholining ustun ehtiyojlarini aniqlash, o'z tashabbuslarini qo'llabquvvatlash, rivojlanish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda zarur bo'ladigan malakalarga o'rgatish bo'yicha keng tarqalgan usullardan biri sifatida ishtirok etish usuli tan olindi¹. Tegishli ravishda erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida tenglikka erishish rivojlanish dasturlariga aholi qanchalik to'liq jalb etilgan bo'lsa, rivojlanish jarayoni shunchalik samarali, natijalari esa barqaror bo'ladi. Shu sababli, XX asrning 70-yillaridan boshlangan "Xotin-qizlar rivojlanishda" harakati xotin-qizlar bilan ishlashga va ularni rivojlanish dasturlariga, samarali va daromad keltiruvchi faoliyatga jalb etishga qaratilgan.

Biroq, rivojlanish amaliyotining tahlili shuni ko'rsatdiki, xotinqizlar ko'pincha rivojlanish jarayonidan chetda qoladi, va, hatto unda ishtirok etgan taqdirda ham rivojlanish loyihalari natijalari erkaklar va xotin-qizlarga turlicha ta'sir ko'rsatgan. Bunday ta'sirning eng yaqqol dalili sifatida qishloq xo'jaligini mikrokreditlashni rivojlantirish bo'lib qoldi. Bir tomondan, dala ishlarini bajarishi, hosilni yig'ib-terishi, sotishi lozim bo'lgan va ayni paytda bunday faoliyatni uy-ro'zg'or ishlari, ko'p sonli oila a'zolarini parvarish qilish bilan birga olib borishga majbur bo'lgan ayollar zimmasidagi majburiyatlar ortib bordi. Ikkinchi tomondan, xotin-qizlarning rivojlanish loyihalaridan oladigan qo'shimcha daromadi erkaklar tasarrufiga o'tib borgan. Odatda, erkaklar oila ehtiyojlari to'g'risida qayg'urishdan yiroq bo'lib, daromadni o'z bilganlaricha tasarruf etgan. SHunday ziddiyatli vaziyat vujudga kelganki, statistik ma'lumotlarga ko'ra, oilalarning umumiy daromadi darajasi oshganligini ko'rsatsa, amalda xotin-qizlarning rivojlanish jarayoniga jalb etilishi natijasida xotin-qizlar va bolalar ahvoli yomonlashgan. SHu tariqa xotin-qizlarning rivojlanishda ishtirokiga yondashuvni qayta ko'rib chiqish va rivojlanish loyihalarini xotin-qizlar va bolalar ahvoliga salbiy ta'sirini engib o'tish zarurati vujudga keldi. SHu maqsadda xotin-qizlar va erkaklarning turlicha zarurat va ehtiyojlarini ajratishga yo'naltirilgan yangi uslubiyotlar ishlab chiqilmoqda. Rivojlantirish loyihalarining erkaklar, xotin-qizlar, o'smirlar, qariyalarga va boshqalarga tabaqalashtirilgan ta'sirini o'rganishga bag'islangan tadqiqotlar insoniyat rivojlanishining ijobiy va salbiy omillarini batafsil ko'rib chiqish, tengsizlik manbalarini aniqlash va rivojlanishdagi teng bo'lmagan tarzda ishtirok etishga olib keluvchi sabablarni bartaraf etish usullarini topish imkonini beradi.

¹ Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent.: 2007. -B.22

Xotin-qizlarning rivojlanishdagi ishtirokiga yangicha yondashuv mantiqan ijtimoiy tuzdagi muammolarni tadqiq etishga bag'ishlangan nazariy ishlanmalar bilan bog'liq. Dastavval, erkaklar va xotinqizlarning ijtimoiy roli, nuqtai nazari, huquq va majburiyatlari masalalari bilan etnograflar shug'ullangan. Etnograflar tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, sanab o'tilgan "farqlar turli mamlakatlar, turli xalqlarda xilma-xil bo'lib, qator omillar, jumladan, ijtimoiy va noijtimoiy – geografik, iqlimiy va biologik omillar bilan belgilanadi"². Tadqiqotchilar xotin-qizlarning teng bo'lmagan ahvolini izohlovchi sabablarni o'rganib chiqib, bu jarayonda nima sababdan jins ijtimoiy tafovutlarni keltirib chiqaruvchi muhim elementga aylanishini aniqlashga intilgan. Tadqiqotlar davomida G'arb feminizmidan kelib chiqqan nisbatan yangi konsepsiya vujudga keldi, unda "jins va hokimiyat masalalari ko'tarib chiqiladi, androtsentristik davlatning va shakllanayotgan fanning batafsil tanqidi keltiriladi"³. (Androtsentrizm – «G'arb madaniyatiga xos erkakni umuman insonga, Homo Sapiens turiga aynan teng hisoblash, ayolni esa xususiy hol, "umuman inson"ning kichik turi sifatida olib qarash normasi⁴). Erkaklar va xotin-qizlarning biologik farqlarini mutlaqlashtirish jarayoni shunga olib keldiki, inson faoliyatining ko'plab sohalari sun'iy ravishda "ayollarga xos" va "erkaklarga xos" turlarga bo'lina boshlandi. Bu esa fan mazmunining o'zida ham aks etdi. YAngi (gender) konsepsiyasi biologik jins bilan (inglizchasiga – sex) ijtimoiy jins (inglizchasiga – gender) farqlanishiga hamda jinslar orasidagi ijtimoiy munosabatlar faqat erkaklar va xotinqizlarning biologik o'ziga xosligi bilan belgilanmasligi, ijtimoiy rollar birligi, fiziologik farqlardan sezilarli ravishda kengligini anglashga qurilgan. Jins – bu anatomik, fiziologik tushuncha, ya'ni individning biologik jinsga oidligini belgilovchi biologik xususiyatlar birligidir⁵. Biroq, odamlar o'rtasida biologik farqlardan tashqari ijtimoiy rollar, faoliyat turlari, xatti-harakatdagi va psixologik xarakteristikadagi bo'linish ham mavjud. Jinsdan farqli o'laroq gender – psixologik, madaniy va ijtimoiy vositalar bilan shakllanadi. O'g'il va qiz bolalarda turlicha ko'nikmalar va psixologik xususiyatlarning tarbiyalanishi, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti, jamiyatda qabul qilingan madaniy me'yorlar, rollar va qarashlar – gender farqlanishni shakllantirish jarayonini ifodalaydi. SHuni qayd etish lozimki, turli jamiyatlarda ushbu jarayon u yoki bu jamiyatda qabul qilingan muayyan andozalarga mos ravishda turlicha kechadi. SHu munosabat bilan erkaklar va xotin-qizlar muayyan gender standartlarga mos ravishda gender rollarni bajaradi, biroq, ushbu rollar ularga tabiatan, ularning biologik rivojlanishiga mos ravishda berilgan emas. "Gender" tushunchasining kiritilishi shuni anglashga yordam beradiki, "jamiyatdagi erkaklar va xotin-qizlar rollari ijtimoiy jihatdan tashkil topadi va belgilanadi"⁶³. Gender konsepsiyasiga muvofiq rivojlanish bo'yicha faoliyatda "Xotin-qizlar rivojlanishda" ("Women in Development") shioridan "Gender va rivojlanish" ("Gender and Development") shioriga o'tish amalga oshirildi. Aholining turli guruhlarining o'zlarining ijtimoiy rollari va o'ziga xos talablariga mos ravishda rivojlanish bo'yicha faoliyatda ishtirok etishiga

² Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent.: 2007.-B.23

³ Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent.: 2007.-B.24

nisbatan gender yondashuvning qo'llanilishi rivojlanishning gender strategiyasini ishlab chiqish imkonini berdi va unga quyidagi tarkibiy qismlar kirdi: • xotin-qizlar ehtiyojlarini ustun tartibda ko'rib chiqish va hisobini yuritish (ayniqsa, madaniy me'yorlar va qadriyatlar, ularning faoliyatda teng ishtirokini cheklab qo'ygan taqdirda); • jamiyatda xotin-qizlar ahvolini erkaklarning ahvoliga nisbatan aniqlash va yaxshilash; • xotin-qizlar tomonidan o'z ahvolini, talab va ehtiyojlarini anglash; • xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga halal beruvchi to'siqlarni aniqlash; xotin-qizlar faoliyat sohaslarini kengaytirish, ular tomonidan an'anaviy erkaklar rollari va kasb-korlarining o'zlashtirilishi; • o'tmishdagi kamsitishning bevosita yoki vositali oqibatlarini bartaraf etish; • xotin-qizlarning nochor guruhlarini ustun ravishda rivojlantirish.⁴

Gender and Development

(Gender va rivojlanish)

E'tibor: erkaklar va xotin-qizlarning ijtimoiy rollarini rivojlanish jarayonida o'rganish. Maqsad: rivojlanishda gender tenglikka erishish. Mantiq: rivojlanish loyihalari va dasturlarida gender tenglik qo'llabquvvatlangan, rivojlanish samaraliroq bo'ladi. Strategiya: xotin-qizlarning ham, erkaklarning ham rivojlanish loyihalarida ishtiroki; oilaning har bir a'zosi ehtiyojini inobatga olish; ne'matlardan foydalanishda tenglikni ta'minlash; uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanishda teng ishtirok etish.

Gender tenglik XXI asrda rivojlanish sohasida BMT maqsadlariga erishish borasida prinsipial jihatdan ahamiyatli omildir. SHunga muvofiq tarzda gender yondashuvlarning takomillashtirilishi va joriy etilishi ijtimoiy adolat, inson rivojlanishining teng huquqliligi va barqarorligiga erishish yo'lida asosiy masala bo'lib qolmoqda. BMT tomonidan qo'yilgan masalalarning samarali tarzda ijro etish yo'llarini izlash yangi gender yondashuvlarni ishlab chiqishga olib keldi. Xususan, Gender mainstreaming (ba'zan «gender majmuaviy yondashuv» deb tarjima qilinadigan) kabi yangi yondashuv har qanday rejalashtirilayotgan tadbirni baholash jarayonini o'z ichiga oladi. Bu har qanday rejalashtirilayotgan tadbir, jumladan sohalarda va barcha darajalarda qonun loyihalarini, strategiyalar va dasturlarni ularning xotin-qizlar va erkaklarga ehtimol ta'siri nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi qamrab oladi. Xotin-qizlar talab va ehtiyojlarini ustun tarzda ko'rib chiqish va ularning hisobini yuritish. Ta'kidlanganidek, rivojlanish bo'yicha dasturlarning yuqori darajada samaradorligiga erishish uchun aholining turli guruhlarining ulardagi ishtirokini batafsil o'rganish lozim.

Aholining turli guruhlarining rivojlanishga oid dasturlar va loyihalarda ishtirok etish darajasiga hududlarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi darajasi ta'sir ko'rsatadi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi G'arbiy Evropa, AQSH, shuningdek, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlari

⁴ Здравомыслова Е.А., Темкина А.А. Социальное конструирование гендера. Сборник статей

andozalaridan jiddiy farq qiladi. Bu esa rivojlanish sohasidagi jahon tajribasini ushbu hududga tatbiq etilishiga to'sqinlik qiladi. Rivojlanish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar sirasiga oilaviy-maishiy, diniy an'analar, ko'chmanchi va o'troq madaniyatlar an'analaridagi farqlar, sovet davrining ta'siri va vujudga kelgan zamonaviy vaziyat kiradi. Jumladan, oilaviy-maishiy munosabatlar sohasida jinslar tengligi g'oyalariga uyg'unlashtirish mushkul bo'lgan ko'plab an'analar mavjud. Bunga qalin to'lash, erning oilasida kelinning mavqeini pasaytirish, kelinning erning qarindoshlari bilan bevosita munosabatlarini taqiqlash kabilar kiradi. Xotin-qizlar huquqlarining buzilishi hozirgacha Markaziy Osiyoning ayrim ko'chmanchi qabilalarida mavjud bo'lgan kelin o'g'irlash an'analarida kuzatiladi. Ikkinchi tomondan, ota-onalarning kelishuviga ko'ra nikohni uyushtirish an'analari ham saqlanib qolgan, bunda kelin va kuyov to'ygacha hatto birbirini tanimaydi ham. Gender munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa an'analar sirasida bola tug'ish an'anasi, ko'p xotinli nikohlar, xotinqizlarni ayirib qo'yish va ularning paranjichachvon tutishi, erta turmushga chiqish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Xotin-qizlar tomonidan o'z ahvolini, talab va ehtiyojlarni anglash. Xotinqizlarning muayyan darajada ajratib qo'yilishi, jamiyatda qaror topgan muayyan fikrlash stereotiplari va ular asosida qizlar va ayollarning hayot yo'li oldindan belgilab qo'yilganligi ularning erkin rivojlanishini muayyan darajada cheklab qo'yadi, vaholanki, bu har bir insonning ajralmas huquqidir. Afsuski, xotinqizlar shaxsiga nisbatan ijtimoiy tazyiq shunchalik kuchliki, u xotinqizlarning o'zini anglashi darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kamdankam hollarda xotin-qizlar oila, mahalliy jamoa va umuman, jamiyat miqyosida o'zlarida etarli kuch va bilim topa oladi. Xotin-qizlar huquqiy savodxonligining pastligi shunga olib keladiki, ular ijtimoiy kamsitish va zo'rvonlikning turli ko'rinishlari qurboni bo'lib qoladi. An'anaviy xotin-qizlar roli tomonidan xotin-qizlar rivojlanishiga yuklanadigan cheklovlar. Xotin-qizlarning erkin va har tomonlama rivojlanishi jarayonidagi muhim to'siqlardan biri shundan iboratki, ishlayotgan ayol uy-ro'zg'or tashvishlari va bolalari uchun mas'uldir. Hatto G'arbning rivojlangan mamlakatlarida ishlovchi ayol uy-ro'zg'or ishlarining 70%ga yaqinini bajaradi⁸. U bilim darajasini oshirish, shaxsning intellektual va jismoniy rivojlanishi, ijtimoiy muloqot doirasini kengaytirish va hokazo uchun asos bo'ladigan bo'sh vaqtdan deyarli mahrum qilingan. Xotin-qizlar resurslar ustidan nazorat qilish va firmaning rivojlanish strategiyasini belgilash imkonini beruvchi lavozimlarni kam hollardagina egallaydi. Ayrim tashkilotlarda "oyna shift"ning mavjudligi va ayolning kasbiy o'sishda undan yuqori ko'tarila olmasligi ham uning lavozim pog'onalaridan o'sishiga va shaxsining rivojlanishiga xalal beruvchi muayyan to'siq hisoblanadi. Ushbu jarayon uchun jamiyatdagi mavjud gender aqidalar mas'ul bo'lib, ularga ko'ra erkaklar tabiatan samaraliroq yetakchi, boshqaruvchi, rahbar hisoblanadi.

Gender o'zlik - muayyan madaniyatda amal qiluvchi erkaklarga xoslik va ayollarga xoslik bilan o'zining bog'liqligini anglashdir. O'zini erkak yoki ayol sifatida identifikatsiyalash – bu ushbu jamiyat tomonidan ularning biologik jinsidan kelib chiqqan holda belgilangan psixologik sifatlar va harakatlar modelini qabul qilish demakdir

Inson tabiatida moddiy manfaatlarni qondirishga bo'lgan ehtiyoj, moddiy ahvolini yaxshilash, sifatli ovqatlanish, bejirim kiyinish, to'q va farovon yashashga intilish hissi rivojlangan. Bu his uni tinmay mehnat qilishga undaydi. Aql-zakovat yordamida qilingan bu ongli mehnat tufayli odam mehnat qurollarini takomillashtirdi, ko'plab moddiy boyliklarga, behisob tirikchilik vositalariga ega bo'ldi. Jamiyat mavjud imkoniyatlarini mehnatni tashkil etishga qaratdi va bu sohada olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritdi. Sotsiologlarning tadqiqotiga ko'ra, odam ilk yashash davrida atigi 10 ta buyumga ehtiyoj sezgan bo'lsa, bu ko'rsatkich bizning asrimizga kelib 24 millionga yetdi. Insoniyat o'z hayotining moddiy-iqtisodiy tomonini tubdan o'zgartirib yubordi. Bular erkak va ayolning teng mehnati natijasida bunyod bo'lganligi barchaga ma'lum. Hozirgi kunda ham jamiyatning moddiy-iqtisodiy rivojlanishi taraqqiyotning yagona mezonini deb qaralmoqda. Bir qaraganda, bu to'g'ridek ko'rinadi. Lekin, afsuski, ijtimoiy ishlab chiqarishning bir tomoni – ma'naviy jihatiga e'tibor susaya boshladi. Oila munosabatalarining ijtimoiy xarakteriga ahamiyat kamaya borib, bu masala kishilarni kamroq qiziqтира boshladi. U xususiy ishga aylanib, ishlab chiqarishning bu ikki turi orasidagi muvozanat buzildi, u kishilik jamiyati uchun ko'plab o'ta jiddiy va xatarli muammolarni keltirib chiqara boshladi. Shunday muammolardan biri gender tengligi muamosidir. Oila munosabatlari kishilarning ma'naviy-ruhiy faoliyatini belgilaganligi uchun ham bu jarayon, eng avvalo, ularning ma'naviy-ruhiy dunyosini barbod eta boshladi. Bu esa jamiyatni ma'naviy-ruhiy inqirozga olib keldi. Bu inqiroz Yerda odamzotning biologik tur sifatida bundan keyin ham yashab qolishini tahlika ostida qoldirmoqda. Shuning uchun ham oilaning rivojlanish qonunlarini o'rganish va oilaviy munosabatlarning ilmiy, ma'naviy-axloqiy asoslarini jamiyat a'zolari ongiga singdirish ijtimoiy fanlar oldidagi eng dolzarb muammolardan bo'lsa, mehnat taraqqiyoti bilan oila taraqqiyotini o'zaro muvozanatda, mutanosiblikda olib borish siyosatini tashkil etish jamiyatning, har bir millatning asosiy vazifalaridan biridir. Kishilik hayotida xotin-qizlarning mavqei ham jamiyatning oila munosabatlariga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib belgilanadi. Oila munosabatlari ijtimoiy hayotni belgilashda juda muhim ahamiyatga ega, deb qaraydigan xalqlar orasida ayolning mavqei birmuncha yuqori turadi. Shuning uchun ham kishilik jamiyatining ilk davrida, ya'ni ona urug'i xukmronlik qilgan davrda ayollarning mavqei juda yuqori bo'lgan va u jamiyat taraqqiyotida belgilovchi ahamiyat kasb etgan.

Keyinchalik oila xo'jaligini yuritish o'zining ijtimoiy xarakterini yo'qotgach, ayollarning ijtimoiy mavqeiga ham putur etdi. Jamiyat iqtisodiy jihatdan yanada yuksaldi, lekin ayolning obro'-e'tibori ko'tarilmadi. Demak, ijtimoiy ishlab chiqarishda ayolning o'rni jamiyatning oila taraqqiyotiga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Insoniyat o'z zurriyodi er yuzida yashab qolishini istasa, u bor imkoniyatlarini oila taraqqiyotiga qaratmog'i, oilaning ijtimoiy hayotga ta'sirini kuchaytirmog'i lozim. Faqat shundagina ayolning ijtimoiy mavqei, uning obro'-e'tibori qayta ko'tarilishi mumkin. Ijtimoiy ishlab chiqarishning faqat bir tomoni, ya'ni mehnatga munosabat taraqqiy etishi bilan oila

taraqqiyoti orqada qolishi jinslar orasidagi munosabatlarning nomutanosibligiga olib keladi.

Gender g'oyasi sotsiologiya fanidan tashqari falsafa, iqtisodiyot, demografiya, tarix, antropologiya, pedagogika, psixologiya, siyosatshunoslik, etnografiya, madaniyatshunoslik va shu kabi fanlar tomonidan ham o'rganilib kelinmoqda.

Gender rollar - bu gender atrofidagi rollardan kelib chiqadigan ijtimoiy kutishlar, va ayni paytda nutq, uslub, kiyim va xatti-harakatlardir. Erkaklar va ayollar g'oyalari bir-biriga zid deb hisoblanadi, va ayrim jamiyatlarda rolli xatti-harakatlar qutblashgan bo'lishi mumkin: passivlik – ayollar roli, faollik – erkaklar roli. Gender rollar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalar, ayniqsa, mehnatning erkaklar va ayollar mehnatiga bo'linishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Hozirgi davrga kelib falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va sotsiologik qarashlarda erkak va ayollar o'rtasidagi munosabatlar hamda xotin-qizlar masalasiga yangicha yondashish paydo bo'ldi. Jumladan, jinslarning ijtimoiylashuvi jarayoni hokimiyat, zo'ravonlik, shaxsning o'zini o'zi anglashi, erkinligi va boshqa sohalarda individning ijtimoiy rollari muammolari sifatida oydinlashtirilgan⁶². Falsafaning asosiy masalalaridan biri bo'lgan insonning ijtimoiy mohiyati muammosi gender nuqtai nazardan ko'rib chiqildi va bu holat bugungi kunda butun dunyoda keng yoyilgan gender tadqiqotlarida o'z aksini topdi. Bu g'oyaning ilgari surilishi natijasida umumbashariy tafakkurda ayollar va erkaklar o'rtasidagi gender tenglikni ta'minlash zaruriyati kun tartibiga qo'yilmoqda, ularning inson huquqlari va imkoniyatlari tengligini kafolatlashga harakat qilinmoqda.

Gender g'oyasi ilmiy yo'nalish sifatida feministik g'oyaning nazariyasi va amaliyotining jadal rivojlanishi natijasida vujudga keldi. Mazkur ilmiy oqim rivojlanishining yangi bosqichi XX asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. Uning asosiy hususiyati gender tizimi tahlilidir. Ayollar tadqiqotlari, ya'ni "women's studies" asta-sekin gender tadqiqotlariga aylana boshladi. Bunda ijtimoiylik va madaniyatning barcha jihatlarini gender o'lchoviga ega bo'lish mumkin degan fikrga asoslangan g'oyalar ilgari surildi. Bunda nafaqat feministik tadqiqotlarning mazmuni, balki tahlil shakli ham o'zgardi. Jumladan, feminizmga xos bo'lgan ayrim keskin qarashlar o'rniga barcha ijtimoiy jarayonlarda genderning mavjudligi, shakllanishi va qayta tiklanishini anglashga bo'lgan intilish kuchaydi. Gender g'oyasi ayollar muammosini odatdagidan ko'ra kengroq miqyosda tadqiq etishni nazarda tutadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, bunday yondashish "ijtimoiy tarix"dan, "madaniy tarix"ga o'tishga mos keladi. Ayollar to'g'risidagi tadqiqotlar maskulinlik va jinsiylik muammolarini o'z ichiga olgani holda mazmunan yanada kengaydi. Ushbu nuqtai nazardan gender ta'limoti "man's studies" yo'nalishi bilan boyidi.

Bizning fikrimizcha, gender – tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ta'siri tufayli shakllangan xususiyatlar yig'indisidir. Gender ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Jins faqat gender

demakdir, ya'ni uning ijtimoiylashuvi natijasidir. Jins insonga tegishli emas, balki inson jinsga oiddir, u esa hokimiyatga ega. Genderni belgilashga nisbatan mavjud yondashuvlar va fikrlar xilma-xilligiga qaramay, ikkita konsepsiyani, genderning ijtimoiy tuzilishi va gender tizimi nazariyasini ajratib ko'rsatish mumkin. Genderni ijtimoiy tuzilma sifatida talqin etuvchi dastlabki yondashuv uch guruhdan iborat ta'rifni qamrab oladi.

Ular quyidagilardan iborat.

1) biologik jins,

2) u yoki bu jamiyatdagi jinslarning rollari to'g'risidagi fikrlar,

3) "gender displeyi", ya'ni erkaklar va ayollar hulq-atvori hamda o'zaro hamkorligining ijtimoiy me'yorlari bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman ko'rinishlari. "Gender displeyi" tushunchasi amerikalik sotsiolog va psixolog I.Goffman tomonidan kiritilgan bo'lib, u jinsning madaniy namoyon bo'lishining bir qancha ko'rinishlarini ifodalaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra gender mazkur madaniyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi. "Gender tizimi" tushunchasi turli tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo'lib, turli mualliflar tomonidan har xil izohlanadi. Gender tizimi jinslararo munosabatlar birligidir. Gender tizimi ommaviy va norasmiy sohalarning gender o'lchovini taqozo etgani, gender ierarxiyasi boshqa ijtimoiy ierarxiyalar tizimlari bilan solishtirish tufayli bu turdagi tahlilda gender texnologiyalarini amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlar rolini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Gender munosabatlarning hukmronlik ma'nolari ko'p jihatdan ana shunday yondashuv rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ldi. Masalan, sotsiolog Rubinning ta'kidlashicha, jamiyatda jinsiy-gender tizimi biologik jinsiylikni inson faolligi mahsuliga aylantirgan ijtimoiy kelishuvlar to'plami sifatida shakllanadi. Boshqacha aytganda, ikki jinsni bir-biridan farqlovchi, tengsiz va bir-biriga bog'liq gender tizimi amalda hukmronlik va ustuvorlik tizimi bo'lib, maqsadi – moddiy va ramziy sarmoyani otalar qo'lida jamlashdir. Tadqiqotchi Richning ta'kidlashicha esa, gender tafovutlarni hosil qiluvchi, ularni hukmronlik va bo'ysunishga joriy etuvchi o'ziga xos tizimdir. Hokimiyat keng tarqalgan tafovutlar tizimiga asoslangan bo'lib, jinsiy tafovutlar ushbu tizimda irsiy jihatdan birlamchi bo'ladi. Aynan ushbu tafovut asosida hokimiyat va jamiyat tomonidan umuman gender ziddiyatini, "noijtimoiy" farqlarning "ijtimoiy" farqlarga, jins seksning jins genderni aylanishini modellashtirishi aniq namoyon bo'ladi.

Oila — er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar va qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh; jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai. Oilaning hayoti moddiy (biologik, xo'jalik) va ma'naviy (axloqiy, huquqiy, psixologik) jarayonlar b-n xarakterlanadi. Oila — tarixiy kategoriya. Uning shakllari va funksiyalari mavjud ijtimoiy munosabatlar xarakteriga, shuningdek, jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasiga bog'liq. Ayni vaqtda Oila jamiyat hayotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi, qator funksiyalar (bola tug'ish, uy-ro'zg'orda mehnat qilish, xo'jalik yuritish, o'z a'zolarining jismoniy,

ehtiyojlarini qondirish, yosh avlodni tarbiyalash ma'naviy va axloqiy-estetik kamolotiga ta'sir ko'rsatish)ni bajaradi. Tadqiqotchilar eng qad. davrda tartibsiz jinsiy aloqalar hukm surgan va u vaqtda Oila hali bo'lmagan, bu aloqalar o'rnini gruppaviy nikoh egallagan, juft Oila paydo bo'lgan, deb hisoblaydilar. Monogomiya (bir nikohli oila)ning qaror topishi b-n ayollar erkaklar tomonidan asoratga solingan. Ayol asta-sekin o'z eri-xo'jayinining mulkiga, quliga aylana borgan. Boylik orttirish va uni qonuniy vorislarga berish Oilaning asosiy maqsadi bo'lib qolgan. Markaziy Osiyoda keng tarqalgan qad. zardushtiylikda O. va nikoh masalasiga muhim ahamiyat berilgan. Oila va nikoh yaratuvchining talabiga mos kelganligi bois uni buzish taqiqlangan. Agarda oilada er yoki xotin axloqsizlik, ya'ni buzuvchilik sodir etilsa, unday kishilar tayoq b-n jazolangan. Shu orqali oila mustahkamligi uchun kurashganlar. Sharqda qadimdan oila muqaddas Vatan hisoblangan. Uning mustahkamligining darz ketishiga yo'l qo'ymaganlar. Shuningdek, "Avesto"da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e'tibor berilgan. qarindosh-urug', aka-ukaning quda-anda bo'lishi qoralangan. O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgach, oilaga bo'lgan e'tibor yanada oshdi. Oila fuqarolik jamiyatining, davlatning eng muhim hujayrasi, zarrasi, bo'g'ini. Oila uch jihatni: o'zining bevosita ko'rinishi bo'lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxo'rlikni, bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi. qonunga binoan nikoh tuzish shartlarida eng muhimlari — nikohga kiruvchilarning o'zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga etganliklari hisoblanadi. Oila poklik va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak, oila mustahkam, tinch, farovon, sog'lom bo'lsagina jamiyatda barqarorlik vujudga keladi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar

Gender (ing. gender—urug')—inson jinsining ijtimoiy-madaniy jihatini ifoda etuvchi tushuncha. G. jamiyatni sotsial-jinsiy jihatdan vertikal stratifikatsiya qilishdan farqli ravishda gorizontaal stratifikatsiya qilishga yordam beradi. G. xulq-atvorning sotsial o'ziga xosligini ifoda etadi.

Gender (jinsiy) tengsizligi — iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalarida erkaklar va ayollar o'rtasidagi tengsizlik. Bu bir xil ishga turlacha ish haqi to'lanishi, ta'lim olishda kam imkoniyatlarga ega bo'lish, yuqori mansablarga ko'tarilish hamda siyosiy hayotga ishtirok etishdagi cheklovlar va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Guruhiy birdamlik - shaxslararo aloqalarning guruh hayotiy faoliyatining vorisiyligini va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi mustahkamligi.

Ierarxiya - (yunon. hieros - muqaddas va arche - hokimiyat) ma'lum bir yaxlitlik qismlari yoki elementlarining yuqoridan quyiga qarab joylashish tartibi. Sotsiologiyada bu tushuncha jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini, ayniqsa byurokriyani belgilashda qo'llaniladi.

Ideal tip — voqeliqda real mavjudligi shart bo'lmagan ijtimoiy ob'ektning asosiy belgilarini ta'kidlovchi konstruksiya. Maks Veber tomonidan yaratilgan byurokriatik tashkilotning ideal tipi bunga misol bo'la oladi.

Ijtimoiy adolat — jamiyatning demokratik rivojlanish darajasini, inson huquq va erkinliklariga rioya qilish normalarini, millat hayot tarzining axloqiy timsolini belgilovchi davlat siyosati, aholining ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan tabaqalari manfaatini ko'zlab, milliy boyliklarni

Boshqaruv - tashkilotning maxsus organining funksiyasi bo'lib eng kam vositalar (vaqt, kuch, zahiralari) sarflab eng yuqori natijaga erishish bo'yicha aniq tashkil etilgan faoliyatdir.

Feminizm — XVIII asrda vujudga kelgan va erkak, ayollar o'rtasida tenglik o'rnatish uchun harakat. I bosqichda XIX - XX-asrning birinchi yarmida huquqiy borgan. Hozirgi davrning eng kuchli ijtimoiy-siyosiy harakatlaridan biri.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Oilada gender tarbiyaning ahamiyati nimada?
2. Oilaviy rollar, gender stereotiplari haqida nimalarni bilasiz?
3. Inson madaniy mavjudot sifatida?
4. Oilaning sotsial institut sifatida shakllanishi haqidagi fikrlaringiz?
5. Oilaning qanday funksiyalari bor?
6. Oilaning jamiyatdagi o'rni haqidagi fikrlaringiz?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

Asosiy adabiyotlar.

1. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi. Toshkent: O'zbekiston 2003.
2. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent. 2007.
3. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyat-ning o'rni / Najmidinova Karimaxon Usmonovna. – Toshkent: «Adolat», 2016. 224 b.
4. Гендер для “Чайников” -2. Книга. –Moskva: “Zvenya”, 2009.
5. Эгорова Л. С., Степанова С. М. Гендерный подход в менеджменте: Учеб. пособие. Иваново: Юнона, 2002. – 100 с.
6. Зритнева Э.И., Клушина Н.П. Семейное воспитание: учебное пособие. – Москва: Владос. 2006. – 246 с.
7. Антонов А.И. Социология семьи. Учебник. - Москва: Инфра-м, 2012..

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.– Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 B.
2. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 508 B.
3. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 400 B.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent. O'zbekiston, 2020. – 456 B.

5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent. O'zbekiston, 2022. - 464.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «OILA» ilmiy-amaliy tadqiqot Markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.03.2018 y., 09/18/229/0950-son)
7. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. <http://www.uza.uz>.
8. Антонов А.И. Микросоциология семьи. - Москва, 2013.
9. Бурова, С.Н. Социология брака и семьи: история, теоретические основы, персоналии. Минск: Право и экономика, 2010. – 444 с.
10. Ганиева М.Х., Латипова Н.М., Алексеева В.С. Социальное обеспечение и защита детей и молодежи. – Ташкент: Янги авлод, 2017. – 315 с.
11. Жеребкин И.А. Ведения в гендерные исследование. Учебное пособие. М.: 2001.
12. Здравомыслова Э. А. , Тёмкина А. А. 12 лекций по гендерной социологии : учебное пособие / Э. Европейский университет в Санкт-Петербурге, 2015. – 768 с.
13. Тартановская И.Н. Гендерная социология. Учебник. Москва: 2005.
- Черняк Е. М. Социология семьи: Учебное пособие. - Москва: Дашков и К, 2004. - 238 с.

MA'RUZA MAVZUSI

2-mavzu. Gender tarbiyasining ijtimoiy huquqiy asoslari

Reja:

1. «Gender tenglik» tushunchasi. Gender tenglikni ta'minlashning qonuniy asoslari.
2. «Gender tenglik» tushunchasi. Gender tenglikni ta'minlashning qonuniy asoslari.
3. Ayol va erkaklar huquqlarini himoya etuvchi davlat siyosatlari: patriarxat, paternalistik, liberal, egalitlar.
4. Gender tenglik konsepsiyasiga asoslangan siyosatni amalga oshirish texnologiyalari: ta'lim berish, analitik, bashorat qilish.
5. Gender steriotiplari.

«Gender tenglik» tushunchasi. Gender tenglikni ta'minlashning qonuniy

asoslari. Mehnat va mulkiy sohalarda huquqlar tengligi va uni ta'minlash. Erkak va ayollarning teng huquq va imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik yo'nalishlari. Jinslar tengligi haqidagi xalqaro xujjatlar. «Davlat siyosati» tushunchasi. Ayol va erkaklar huquqlarini himoya etuvchi davlat siyosatlari: patriarxat, paternalistik, liberal, egalitar. Siyosatda gender yondashuv va gender tahlil. Davlat gender siyosatining samaradorligini baholash indikatorlari. Gender tenglik konsepsiyasiga asoslangan siyosatni amalga oshirish texnologiyalari: ta'lim berish, analitik, bashorat qilish.

XX asr oxiridagi falsafiy va sotsiologik tahlillar jinsiylik tabiati, jinslararo munosabatlar hamda xotin-qizlar masalasiga yangicha qarashni ifodaladi. Jamoaning eng dolzarb muammolari - hokimiyat, zo'raonlik, shaxsning o'zini anglashi va ozodligi sanoatlashuvdan keyingi davrda individning jinsiy mos kelishi va tegishli ijtimoiy rollar muammolari sifatida oydinlashtirildi. Falsafaning asosiy masalalari: inson mohiyati muammosi, ma'nosi, maqsadi, inson mavjudligining makoni va vaqti gender nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi. Genderning yangi konsepsiyasi "xotin - qizlar masalasi"ga kengroq yondashib, uni jinsiy tafovutga oid muammoli maydonga ko'chirdi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ushbu siljish "ijtimoiy tarixdan" "madaniy tarixga" o'tishga mos keladi. Nemis olimi R.Xof faqatgina xotin-qizlar masalasining tahlili bilan chegaralanib, erkaklarning muammolaridan ajralib qoldi. Uning nazarida, genderni asosiy ilmiy kategoriya sifatida tahlil qilishga 4 ta sabab bor: 1. Ayol va erkak o'rtasidagi sababiy bog'lanish hamda odatdagi deb hisoblanadigan muayyan ijtimoiy rollardan voz kechish; 2. Jinslararo munosabat tizimi va boshqa ichki madaniy nuqtai nazarlar o'rtasidagi bog'liqlikni belgilash; 3. Erkaklar va ayollar muayyan rollarni bajaradigan ijtimoiy tashkilotni tegishli hokimiyat tuzilmalari tahlilisiz anglab bo'lmasligini tan olish; 4. Turli rollarga olib keladigan farqlash jarayoni ham tahlil qilinishi lozimligiga iqrar bo'lish.

Odamlarni rollarga ajratish an'anaviy tus olganligini isbotlash uchun Vanda Lyusiya Zemyuner Italiya va Gollandiyada, ya'ni bir-biridan milliy mentaliteti bilan ajralib turadigan mamlakatlardan ikki guruh bolalar orasida sotsiologik tadqiqot olib bordi. Bu tadqiqotda italiyalik bolalar gollandiyaliklarga qaraganda biror jinsga mansub o'yinchoqlarni ko'proq tanlashgan. Chunki italiyaliklar madaniyati nisbatan an'anaviylikka moyil edi.

Tadqiqotchi Lenora Veytsman boshchiligidagi sotsiologlar guruhi bolalar kitoblarida gender rollari qay darajada tasvirlanganligini o'rgandilar. Barcha tahlil etilgan kitoblarda jamoat ishlari bilan shug'ullanadigan ayol obrazlari qayd etilmagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sotsiologlar jins muammosiga xolis yondoshilgan kitoblar hali ham bolalar adabiyoti bozoriga kam ta'sir o'tkazayotgan ekan, degan xulosaga kelishgan. Britaniyalik Jun Stetem o'z farzandlarida "erkak" va "ayol" sifatlarini yangicha uyg'unlikda tarbiyalashga harakat qilgan oilalarda tadqiqot o'tkazgan. Ular o'g'il bolalar boshqalarning tuyg'ularini yaxshiroq his etishini, mehribonroq bo'lishini xohlar, ayni paytda qizlarda ta'lim olish va o'z-o'zini takomillashtirish uchun imkoniyatlardan faol foydalanishni rag'batlantirardi. Barcha ota-onalar shakllangan gender ta'limiga qarshi turish murakkabligini tan

olgan. Chunki bolalar ko'cha va maktabda an'anaviy qarashlarning ta'siriga tushib qolgan⁵⁴.

Zigmund Freyd esa jinsiy o'ziga xoslik paydo bo'lishini go'daklik, Edip davri, lotent (yashirin) davrlarga bo'lib o'rganadi⁵⁵. Freyd g'oyalarini takomillashtirgan Nensi CHodorou, Mapilin French ayollarning erkaklar bilan teng huquqlilikka erishishda bosib o'tishlari lozim bo'lgan yo'lning uzoqligini manbalar asosida isbotlab beradilar. Ayollar masalasini gender nuqtai nazardan tadqiq etishga uringan olimlar Betti Fridan, E. Zdravomislova, A. Temkina, G. Bok, E. Giddens va boshqalarning fikrlari ham ahamiyatlidir. Tadqiqotchi Gurimarfu ko'pgina mamlakatlarda barcha fuqarolarning eng asosiy erkinliklari va huquqlari barobar kafolatlangan bo'lishiga qaramay, ayollarning turmushi ko'pincha oilaviy majburiyatlar, diniy an'analar bilan belgilanadiki, ular rasmiy huquqlarga zid keladi. Gender tengligiga erishish uchun qonunda berilgan teng huquqlar va imkoniyatlar butun jamiyat tomonidan qabul qilinishi muhimdir⁵⁷, degan fikrni e'tirof etadi.

Inson tabiatida moddiy manfaatlarni qondirishga bo'lgan ehtiyoj, moddiy ahvolini yaxshilash, sifatli ovqatlanish, bejirim kiyinish, to'q va farovon yashashga intilish hissi rivojlangan. Bu his uni tinmay mehnat qilishga undaydi. Aql-zakovat yordamida qilingan bu ongli mehnat tufayli odam mehnat qurollarini takomillashtirdi, ko'plab moddiy boyliklarga, behisob tirikchilik vositalariga ega bo'ldi. Jamiyat mavjud imkoniyatlarini mehnatni tashkil etishga qaratdi va bu sohada olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritdi. Sotsiologlarning tadqiqotiga ko'ra, odam ilk yashash davrida atigi 10 ta buyumga ehtiyoj sezgan bo'lsa, bu ko'rsatkich bizning asrimizga kelib 24 millionga etdi. Insoniyat o'z hayotining moddiy-iqtisodiy tomonini tubdan o'zgartirib yubordi. Bular erkak va ayolning teng mehnati natijasida bunyod bo'lganligi barchaga ma'lum. Hozirgi kunda ham jamiyatning moddiy-iqtisodiy rivojlanishi taraqqiyotning yagona mezonini deb qaralmoqda. Bir qaraganda, bu to'g'ridek ko'rinadi. Lekin, afsuski, ijtimoiy ishlab chiqarishning bir tomoni – ma'naviy jihatiga e'tibor susaya boshladi. Oila munosabatalarining ijtimoiy xarakteriga ahamiyat kamaya borib, bu masala kishilarni kamroq qiziqтира boshladi. U xususiy ishga aylanib, ishlab chiqarishning bu ikki turi orasidagi muvozanat buzildi, u kishilik jamiyati uchun ko'plab o'ta jiddiy va xatarli muammolarni keltirib chiqara boshladi. SHunday muammolardan biri gender tengligi muammosi bo'lib hisoblanadi. Masalan, oila munosabatlari kishilarning ma'naviy-ruhiy faoliyatini belgilaganligi uchun ham bu jarayon, eng avvalo, ularning ma'naviy-ruhiy dunyosini barbod eta boshladi. Bu esa jamiyatni ma'naviy-ruhiy inqirozga olib keldi. Bu inqiroz Erda odamzotning biologik tur sifatida bundan keyin ham yashab qolishini tahlika ostida qoldirmoqda. SHuning uchun ham oilaning rivojlanish qonunlarini o'rganish va oilaviy munosabatlarning ilmiy, ma'naviy-axloqiy asoslarini jamiyat a'zolari ongiga singdirish ijtimoiy fanlar oldidagi eng dolzarb muammolardan bo'lsa, mehnat taraqqiyoti bilan oila taraqqiyotini o'zaro muvozanatda, mutanosiblikda olib borish siyosatini tashkil etish jamiyatning, har bir millatning asosiy vazifalaridan biridir. Kishilik hayotida xotin-qizlarning mavqei ham jamiyatning oila munosabatlariga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib belgilanadi. Oila munosabatlari ijtimoiy hayotni belgilashda juda

muhim ahamiyatga ega, deb qaraydigan xalqlar orasida ayolning mavqei birmuncha yuqori turadi. SHuning uchun ham kishilik jamiyatining ilk davrida, ya'ni ona urug'i xukmronlik qilgan davrda ayollarning mavqei juda yuqori bo'lgan va u jamiyat taraqqiyotida belgilovchi ahamiyat kasb etgan.

Keyinchalik oila xo'jaligini yuritish o'zining ijtimoiy xarakterini yo'qotgach, ayollarning ijtimoiy mavqeiga ham putur etdi. Jamiyat iqtisodiy jihatdan yanada yuksaldi, lekin ayolning obro'-e'tibori ko'tarilmadi. Demak, ijtimoiy ishlab chiqarishda ayolning o'rni jamiyatning oila taraqqiyotiga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Insoniyat o'z zurriyodi er yuzida yashab qolishini istasa, u bor imkoniyatlarini oila taraqqiyotiga qaratmog'i, oilaning ijtimoiy hayotga ta'sirini kuchaytirmog'i lozim. Faqat shundagina ayolning ijtimoiy mavqei, uning obro'-e'tibori qayta ko'tarilishi mumkin. Ijtimoiy ishlab chiqarishning faqat bir tomoni, ya'ni mehnatga munosabat taraqqiy etishi bilan oila taraqqiyoti orqada qolishi jinlar orasidagi munosabatlarning nomutanosibligiga olib keladi.

Odamzotning o'z zurriyodini dunyoga keltirishi va voyaga etkazishi o'ziga xos murakkab jarayon. Bu ko'proq ayolga bog'liq bo'lib, bu vazifani bajarishda turli psixoemotsional kechinmalar kabi murakkabliklarni vujudga keltiradi. Demak, jamiyat mana shu jarayonning mushkulligini tan olishi muhim. Ayolning homiladorligi, farzand tug'ishi, uning uzoq vaqt parvarishga, his-tuyg'u, e'tiborga muhtoj bo'lishi onadan bu ishlarni sabr-toqat bilan bajarishni talab etadi. Ammo bu mehnat jamiyat tomonidan etarlicha baholanmaydi.

Ayollarning vazifasi bu bilangina cheklanmaydi. Ular qo'yidagi uch: **reproduktiv, produktiv va ijtimoiy** vazifani bajarishadi. Erkaklar esa, odatda, produktiv va ijtimoiy siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishadi. **Reproduktiv** vazifa – bola tug'ish va uy xo'jaligini yuritish ishchi kuchini tiklash va qo'llab-quvvatlash uchun zarurdir. **Produktiv** vazifa – erkak va ayollar tomonidan moddiy boylik yaratish uchun bajariladigan ish. **Ijtimoiy vazifa** – odamlarning atrof-muhitni muhofaza qilish, sog'liq, ta'lim, tarbiya kabi jamoat ishlarida amalga oshiradigan faoliyatidir. Bu xizmat haqi to'lanmaydigan, ixtiyoriy ravishda, bo'sh vaqtda bajariladigan mehnat faoliyatidir. **Ijtimoiy-siyosiy** vazifa – ko'pincha erkaklar tomonidan jamiyat yoki rasmiy siyosiy darajada, milliy siyosat doirasida bajariladigan faoliyatdir. Odatda, bu mehnatga ish haqi to'lanadi. Reproductive faoliyat butun insoniyat tarixi davomida asosan ayollar tomonidan haq to'lanmaydigan mehnat sifatida bajarib kelingan. Iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, sanoati rivojlangan mamlakatlarda erkaklar o'zlarining umumiy ish vaqtining 70 foizini, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa uning to'rtidan uch qismidan ko'prog'ini haq to'lanadigan mehnat faoliyatiga sarflaydilar. Ayollar esa erkaklardan farqli o'laroq, o'z vaqtining to'rtidan uch qismini haq to'lanmaydigan va faqat to'rtidan bir qismini haq to'lanadigan mehnat faoliyatiga sarf qiladilar.60 SHu bois erkaklar daromadning eng katta qismini oladilar va o'zlarining iqtisodiyotga qo'shayotgan ulushlari uchun jamiyat tomonidan e'tirof etiladilar. Ayollar mehnatining reproduktiv qismi esa jamiyat tomonidan etarli darajada e'tirof etilmasdan va baholanmasdan qolmoqda. Bunday holat ayol bilan erkak

o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy normalar va urf-odatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Shunday qilib, jinsiy tavofutlarning ham o'ziga xos, umumiy sababiy bog'lanishlari (determinantlari) mavjud bo'lib, bular ta'sirida erkaklarga xos bo'lgan kuchlilik, mustaqillik, faollik, tajovuzkorlik, ratsionallik, shaxsiy muvaffaqiyatga intilish kabi, ayollarda esa zaiflik, tobelik, sustkashlik, muloyimlik, hissiyotga moyillik, boshqalar yordamiga muhtojlik, ta'sirchanlik va hokoza xarakter xususiyatlari tarkib topadi.⁶¹

Erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi bunday ziddiyatli tafovutlarga qaramay, jinslar bir-biriga nisbatan doimiy ma'naviy-ruhiy ehtiyoj sezadilar. Inson tabiatan jinslarga ajratilgan bo'lsa-da, ruhan umumiy yaxlitlikka intiladi. Tabiatan erkak va ayol ruhiy tomondan bir-birlarini to'ldiradilar, bir-birlaridan ruhiy va ma'naviy kuch-quvvat oladilar. SHu tarzda inson mukammalashib, ma'naviy yuksalib boradi. Ruhiy begonalashuv esa jinslarning orasiga ixtilof solib, ma'naviy qashshoqlik va ruhiy g'ariblik sari etaklaydi.

Bu ehtiyojlarning jami erkak va ayol jinsini bir-biriga bog'laydi, ularni yaxlit, bir butun holda tarkib topishlari va faoliyat olib borishlarini ta'minlaydi. Jinslar orasidagi munosabatlar dialektik xarakterga ega bo'lib, tabiat va jamiyatning eng umumiy qonunlariga bo'ysunadi. Bu qonuniyatlar esa gender g'oyasida o'z ifodasini topadi.

Gender g'oyasi sotsiologiya fanidan tashqari falsafa, iqtisodiyot, demografiya, tarix, antropologiya, pedagogika, psixologiya, siyosatshunoslik, etnografiya, madaniyatshunoslik va shu kabi fanlar tomonidan ham o'rganilib kelinmoqda.

Hozirgi davrga kelib falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va sotsiologik qarashlarda erkak va ayollar o'rtasidagi munosabatlar hamda xotin-qizlar masalasiga yangicha yondashish paydo bo'ldi. Jumladan, jinslarning ijtimoiylashuvi jarayoni hokimiyat, zo'ravonlik, shaxsning o'zini o'zi anglashi, erkinligi va boshqa sohalarda individning ijtimoiy rollari muammolari sifatida oydinlashtirilgan⁶². Falsafaning asosiy masalalaridan biri bo'lgan insonning ijtimoiy mohiyati muammosi gender nuqtai nazardan ko'rib chiqildi va bu holat bugungi kunda butun dunyoda keng yoyilgan gender tadqiqotlarida o'z aksini topdi. Bu g'oyaning ilgari surilishi natijasida umumbashariy tafakkurda ayollar va erkaklar o'rtasidagi gender tenglikni ta'minlash zaruriyati kun tartibiga qo'yilmoqda, ularning inson huquqlari va imkoniyatlari tengligini kafolatlashga harakat qilinmoqda.⁶³

Zamonaviy jamiyatshunoslik fani ushbu tushunchani va uning shakllarini ijtimoiylik nuqtai nazaridan tahlil qilishning muhim asoslardan biri sifatida samarali tarzda ishlab chiqmoqda.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, gender inson jinsining ijtimoiy-madaniy jihatini ifoda etuvchi tushuncha. U inson hulq - atvorining sotsial o'ziga xosligini ifoda etib, amaliyot yordamida ijtimoiy jins sifatida shakllanadi. Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlarning me'yoriy tizimi vujudga keladi. Jamiyatda "erkaklarga oid" va "ayollarga oid" xususiyatlar to'g'risida qat'iy qaror topgan tasavvurlar sifatida paydo bo'ladi. Masalan, bolalar yoshligidanoq erkak va ayol rollarini o'ynay boshlaydilar. Qiz bolalarning ona

rolini, shifokor yoki o'kituvchi rollarini o'ynashi, o'g'il bolalarning esa mashinalar, muhandislik yoki quruvchilik bilan qiziqishlari bejiz emas. Bolalarning o'z jinsiga muvofiq ijtimoiylashuvda madaniy muhit katta rol o'ynaydi. Zero, madaniy muhitgina erkak va ayolning qanday bo'lishi lozimligini taqozo etadi.

SHunday qilib, bizning fikrimizcha, gender – tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ta'siri tufayli shakllangan xususiyatlar yig'indisidir. Gender ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Jins faqat gender demakdir, ya'ni uning ijtimoiylashuvi natijasidir. Jins insonga tegishli emas, balki inson jinsga oiddir, u esa hokimiyatga ega. Genderni belgilashga nisbatan mavjud yondashuvlar va fikrlar xilma-xilligiga qaramay, ikkita konsepsiyani, genderning ijtimoiy tuzilishi va gender tizimi nazariyasini ajratib ko'rsatish mumkin. Genderni ijtimoiy tuzilma sifatida talqin etuvchi dastlabki yondashuv uch guruhdan iborat ta'rifni qamrab oladi. Ular quyidagilardan iborat. 1) biologik jins, 2) u yoki bu jamiyatdagi jinslarning rollari to'g'risidagi fikrlar, 3) "gender displeyi", ya'ni erkaklar va ayollar hulq-atvori hamda o'zaro hamkorligining ijtimoiy me'yorlari bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman ko'rinishlari. "Gender displeyi" tushunchasi amerikalik sotsiolog va psixolog I.Goffman tomonidan kiritilgan bo'lib, u jinsning madaniy namoyon bo'lishining bir qancha ko'rinishlarini ifodalaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra gender mazkur madaniyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi. "Gender tizimi" tushunchasi turli tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo'lib, turli mualliflar tomonidan har xil izohlanadi. Gender tizimi jinslararo munosabatlar birligidir. Gender tizimi ommaviy va norasmiy sohalarning gender o'lchovini taqozo etgani, gender ierarxiyasi boshqa ijtimoiy ierarxiyalar tizimlari bilan solishtirish tufayli bu turdagi tahlilda gender texnologiyalarini amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlar rolini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Gender munosabatlarining hukmronlik ma'nolari ko'p jihatdan ana shunday yondashuv rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ldi. Masalan, sotsiolog Rubinning ta'kidlashicha, jamiyatda jinsiy-gender tizimi biologik jinsiylikni inson faolligi mahsuliga aylantirgan ijtimoiy kelishuvlar to'plami sifatida shakllanadi. Boshqacha aytganda, ikki jinsni bir-biridan farqlovchi, tengsiz va bir-biriga bog'liq gender tizimi amalda hukmronlik va ustuvorlik tizimi bo'lib, maqsadi – moddiy va ramziy sarmoyani otalar qo'lida jamlashdir. Tadqiqotchi Richning ta'kidlashicha esa, gender tafovutlarni hosil qiluvchi, ularni hukmronlik va bo'ysunishga joriy etuvchi o'ziga xos tizimdir. Hokimiyat keng tarqalgan tafovutlar tizimiga asoslangan bo'lib, jinsiy tafovutlar ushbu tizimda irsiy jihatdan birlamchi bo'ladi. Aynan ushbu tafovut asosida hokimiyat va jamiyat tomonidan umuman gender ziddiyatini, "noijtimoiy" farqlarning "ijtimoiy" farqlarga, jins seksning jins genderni aylanishini modellashtirishi aniq namoyon bo'ladi. Gender tuzilmasi ayni paytda o'zi haqidagi, shuningdek, boshqalar haqidagi tasavvur jarayonidir. SHu nuqtai nazardan, gender g'oyasi tarkibi va shakllanish bosqichlarini o'rganish katta ahamiyatga ega:

- jins biologik kategoriya sifatida – mavjud genlar va jinsiy a'zolar birligi, tug'ilishgacha, o'smirlik va katta yoshlilarga xos bo'lgan gormonal to'plam;

- jinsijtimoiy kategoriya sifatida – tug‘ilishidan belgilangan;
- jinsiy (gender) o‘xshashlik – o‘zini mazkur jinsga tegishli ekanligini anglash;

- jins (gender) jarayon sifatida – o‘rgatish, o‘rganish, rolni qabul qilish, muayyan gender maqomiga mos keladigan xatti-harakatlarni o‘zlashtirish;

- jins (gender) maqom va tuzilma sifatida – individning gender maqomini jinslararo belgilangan munosabatlar qismi sifatida, ayniqsa, hukmronlik va bo‘ysunish tarkibi sifatida ko‘rinishiga barham berish.

Dastavval, feministik ruhdagi, keyinchalik esa kengroq ko‘lamdagi gender tadqiqotlarda gender ta’limotini shakllantirish texnologiyalariga, ya’ni u yoki bu jamiyatdagi munosabatlar modelini belgilovchi gender me’yorlarini o‘rganish va o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Gender g‘oyasi tushunchasiga oid mavjud nuqtai nazarlarni tizimlashtirish va tartibga keltirishga intilish rossiyalik O. Voronina, Klimentkova, M. Malysheva va boshqalarning tadqiqotlarida berilgan. Ushbu masala bo‘yicha G‘arbdagi yondashuvlarning umumlashtirilgan bir ko‘rinishi - O. Voronina tomonidan taklif etilgan model diqqatga sazovordir. (Voronina O.A. *Jenščina v mujskom obščestve. //Sotsiologicheskie isseedovaniya. 1988. № 2. – c. 15).*

gender ijtimoiy-demografik kategoriya sifatida;

gender ijtimoiy qurilma sifatida;

gender sub’ektivlik sifatida;

gender g‘oyaviy tuzilma sifatida;

gender tarmoq (network) sifatida;

gender texnologiya sifatida;

gender madaniy istiora sifatida.

“Gender g‘oyaviy tuzilma sifatida”gi muammolar qatorida, masalan, jinsiylik hukmronlik tizimi orqali tashkil etilgan va nazorat imkoniyati erkaklarga berilgan genderni erkaklarning hukmronligi ko‘rinishi deb belgilovchi feministik tahlil yo‘nalishlaridan biri keltirilgan. Unda nazorat ayollarni ob’ektga aylantirish orqali amalga oshiriladi. Mazkur qarash tarafdorlarining qayd etishicha, erkaklarning nuqtai nazaridan gender faqat xotin-qizlarga xos, erkaklar bunday jinsiy o‘ziga xoslikdan holi, chunki ular butun imkoniyatni ifodalaydi. Ushbu g‘oya qadimiy bir bid’atda o‘z ifodasini topgan, ya’ni go‘yoki jins, jinsiylik – xotin-qizlarga taalluqli imtiyoz hamda “ayollarga xoslik afsonasi” mavzui ana shundan kelib chiqqan. Postmodernizm falsafasida gender madaniy istiora sifatida anglanadi hamda predmet tahlilining yana bir muhim samarali jihatini belgilaydi. Bunday yondashuv genderning madaniy-ramziy tabiatini ifodalaydi. Mavjud madaniy-ramziy gender har doim ham aniq qadriyatlar yo‘nalishi va maqsadlarni ifodalayvermaydi. Feminlilikni va maskulinlikni ijtimoiy-madaniy aniqlikda shakllantiradi, erkaklik va ayollikning butun ontologiyasi bilan belgilab berilgan madaniy-ramziy ierarxiyasini ifodalaydi. Antologik ibtido sifatida erkaklik va ayollikning boshqa asosiy kategoriyalarga singishib ketgani, ularning dastlabki tabiiy-biologik ma’nolarini ham o‘zgartirib yuboradi. Jins madaniy istioraga aylanadi, ushbu istiora esa nafaqat tavsiflash vazifasini o‘taydi, balki ijtimoiy borliqni ham ta’riflashga qodir. Tahlilning ushbu ko‘rinishi asosan Lyusi Irrigare,

Xelen Sisu, Yuliya Kristieva g'oyalari ta'sirida kuzatiladigan fransuzcha poststrukturalistik an'ana tomonidan rivojlantiriladi.

Gender o'xshashlik tushunchasi - o'zini erkaklik va ayollik madaniy tushunchalari bilan bog'liq holda tasavvur etish. Tushuncha mutlaqo sub'ektiv tajriba chegarasidan tashqarida amal qilmaydi va "Men" hamda boshqalar o'zaro hamkorligi jarayoni natijasida yuzaga kelgani holda erkaklarga xos va ayollarga xos xususiyatlarning psixologik interiorizatsiyasiga xizmat qiladi. Transvestit va transseksual o'xshashliklarning mavjudligi shuni ko'rsatadiki, gender jinsga bog'liq emas, balki gender o'xshashliklar vujudga kelishi natijasidir.

Shu masalani o'rganish ayollarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash uchun qanday huquqiy cheklashlar bartaraf etilishi kerakligi va erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi tengsizlikni tugatish uchun islohotlar siyosatining mohiyati qanday bo'lishi lozimligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mavjud gender muammolari va kelishmovchiliklari, ayollarning jamiyatdagi tobeligi mavjud institutsional tuzilmalar orqali takrorlanib turadi, bunday tuzilmalarga uy-ro'zg'or xo'jaligi, jamoa, davlat va fuqarolik jamiyati kabilar kiradi. Ana shu institutsional tuzilmalarning va ularda tarkib topgan o'zaro munosabatlar genderning rivojlanishiga, jamiyatning barcha a'zolari uchun tanlash imkoniyatlaridagi ta'sirini tadqiq qilish zarurligini taqozo etadi.

Gender teng huquqliligi ayollarning o'z taqdiriga daxldor masalalar bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatini ham nazarda tutadi. Buning ma'nosi shuki, ayolning o'zi kimga va qachon erga tegishini, qanday kasbni tanlashini, tug'ish va qancha farzand ko'rish to'g'risidagi masalalarni hal etishda uning teng huquqli ishtiroki ham shu jumlagi kiradi.

Gender rivojlanishi ko'p jihatdan erkaklar va ayollarning ma'naviy resurslardan bahramand bo'lishlarida imkoniyatlarning tengligiga, jumladan axborot, bilim, o'z-o'zini anglashga ham bog'liq.

Adolatli jamiyat barcha fuqarolarning ushbu resurslardan kamsitmasdan va teng bahramand bo'lishlarini ta'minlay borib, shu tariqa ayollarning ahvolini yaxshilashga ko'maklashadi va rivojlanishni gender tengligiga erishishga yo'naltiradi. Ayollarni mavjud bilimlardan, axborot va kasb-hunar ta'limidan bahramand bo'lishlari ularni jamiyatda ishtirok etishlarini ta'minlabgina qolmay, shu bilan birga ularning tobeligini bartaraf etishga ham yordam beradi.

Jinslarning huquq va imkoniyatlardagi tengligini qonunchilik yo'li bilan ta'minlash gender rivojlanishi uchun zarur hisoblansa - da, ammo etarli emas. Qonun odamlarni himoya qiladi va fuqarolar sifatida ularning huquqlarini belgilab beradi. Ammo ko'pgina mamlakatlarda barcha fuqarolarning eng asosiy erkinliklari va huquqlari teng darajada kafolatlangan bo'lishiga qaramay ayollarning turmushi ko'pincha oilaviy majburiyatlar, diniy an'analar bilan belgilanadiki, ular rasmiy huquqlarga zid kelishi mumkin. Binobarin, gender tengligiga erishish uchun qonunda berilgan teng huquqlar va imkoniyatlar butun jamiyat tomonidan qabul qilinishi muhimdir. Real hayotda gender tengligiga o'tish, erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham tanlashdagi teng huquqlarning jamiyat tomonidan e'tirof etilishi qizg'in munozara tusidadir.

Hozirgi vaqtda keng ko'rsatkichlar tizimi tarkib topgan bo'lib, u ayollar maqomi va gender tengligini o'lchaydi. Gender tengligiga o'tish ikki yo'l bilan – himoya siyosati orqali ham, xotin-qizlar harakatida o'z ifodasini topadigan ayollar tashabbusi orqali ham amalga oshirilishi mumkin:

✦ O'zini-o'zi faollashtirish jarayoni, bunda ayollarning o'zlari o'z hayotlarini tanqidiy va jamoa holida qayta idrok eta boshlaydilar. Ayollarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xotin-qizlarning turli xil tashkilotlari tuzilganligi gender tengligiga erishish uchun

Jamiyat hayotining qay darajada kechishi, rivojlanish sari qo'yilayotgan qadamlar, qolaversa, istalgan harakatdan kutiladigan natijalar albatta ko'p jihatdan ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog'liq. Aynan shu munosabatlar hayotimizning barcha jabhalari – mehnat faoliyati, oila, mahalla, o'qish, muloqot va boshqa turli jarayonlarni boshqarib keladi.

Jamiyat hayotining qay darajada kechishi, rivojlanish sari qo'yilayotgan qadamlar, qolaversa, istalgan harakatdan kutiladigan natijalar albatta ko'p jihatdan ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog'liq. Aynan shu munosabatlar hayotimizning barcha jabhalari – mehnat faoliyati, oila, mahalla, o'qish, muloqot va boshqa turli jarayonlarni boshqarib keladi.

Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqlilik masalasi ham mazkur jarayonlarda munosabatlarni qonunan tartibga solinishi bilan ahamiyatli.

So'nggi yillarda Prezidentimiz tomonidan xotin-qizlar masalalariga, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, maishiy hayotdagi muammolarini hal qilish, iqtidori va imkoniyatlarini ko'rsatish uchun qulay sharoit yaratilmoqda. Oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ushbu yo'nalishda tub burilish yasadi. Mazkur qarorda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish yuzasidan yangi qonunlar ishlab chiqilishi muhim vazifa sifatida belgilangan edi. Belgilangan qonunlarning ishlab chiqilib, muhokama etilib, ma'qullangani qaror ijrosining ta'minlanganini ko'rsatadi.

Oliy Majlis Senatining yigirma birinchi yalpi majlisida ma'qullangan hamda Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash, sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Bundan tashqari, u ko'plab masalalarga oydinlik kiritish, faoliyatda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda faol iste'molda bo'lgan gender so'zining tushunilishi va qo'llanish holatlaridagi noto'g'ri talqin va tasavvurlar mavjudligini aytish joiz. Xususan, genderni ayollar mavzusi yoki ularning ustunligiga oid tushuncha deb qarash kuzatiladi. Albatta, bu to'g'ri emas. Gender – bu xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti hamda faoliyatining barcha sohalarida,

shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ekanligi mazkur qonunda aniq yozib qo'yilgan. Bu masalaga oid tushunchalarga berilgan tegishli izohlarning mavjudligi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, demokratizm, jinsi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmaslik, ochiqlik, shaffoflik belgilab berilgan.

Endilikda bu yo'nalishda normativ-huquqiy bazani shakllantirish, takomillashtirish hamda rivojlantirish muhim bo'lib, bu doirada davlat dasturlari, milliy harakatlar rejalari va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish eng muhim vazifalar hisoblanadi. Chunki ushbu hujjatlarni yaratish, aniq ijro mexanizmlarini ishlab chiqish orqali xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar bo'yicha huquqiy madaniyatni shakllantirish, jamiyat, davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirokini ta'minlash, mas'uliyatli onalik va otalikni shakllantirish kabi yo'nalishlarda faoliyat tashkil etiladi.

Qonunning qabul qilinishi davlat boshqaruvida ayollarning erkaklar bilan teng sharoitda ishtirok etishini, ayniqsa, rahbarlik lavozimlarida ham ishlashi mumkinligi kafolatlaydi. Shuningdek, qonunda hokimiyat vakillik organlariga saylovlarda ham siyosiy partiyalar tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatishda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi ta'minlanishi belgilab qo'yildi.

Jamiyatda ayollarning kamsitilishiga yo'l qo'yadigan, asossiz tengsizlik natijasida hayotida qiyinchiliklar kelib chiqayotgan oilalarning ham borligi achinarli hol, albatta. Ta'kidlash joizki, oilaviy munosabatlarda, ayniqsa, bolalar tarbiyasida ona ham, ota ham birdek mas'uldir. Qonunda bu borada ham erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari aniqlab berilgan bo'lib, ularning teng majburiyatlarga ega ekanligi yozib qo'yilgan. Bu borada ayollar va erkaklar nikohining ixtiyoriyligi, majburiy va erta nikohlarga yo'l qo'yilmasligi, er-xotinlarning shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlari tengligi kabilar shular jumlasidandir. Bola tug'ilishi munosabati bilan haq to'lanadigan ta'til olishda ota ham, ona ham teng huquqqa ega. Bolaga qarash bo'yicha ta'tilning davomiyligi ota-onaning ixtiyoriga ko'ra ular o'rtasida taqsimlanishi, bunda ota-ona ta'tildan qismlarga bo'lgan holda foydalanishlari mumkinligi ham aynan gender tenglikning ifodasidir.

Qonun ta'lim, ilm-fan, madaniyat hamda sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ham aks ettirgan. Ta'kidlash joizki, ushbu sohalarida mamlakatimizda ayollar faol mehnat faoliyatni olib boradilar. Ta'limning barcha bosqichlarida, ilmiy-tadqiqot, tibbiyot sohalarida mehnat qilayotgan ayollar ko'pchilikni tashkil etishi ma'lum.

Endilikda turli ta'lim dasturlariga gender mavzusini joriy etish orqali fuqarolarning gender xabardorligini oshirishga ko'maklashish, jinlardan birining ustunligi g'oyasiga asoslangan noto'g'ri tasavvurlardan xoli o'quv adabiyotlarini tayyorlash va chop etish, gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlash masalalari bo'yicha aholining huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan axborot-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish kabi faoliyat yo'nalishlarida ko'plab ishlarni amalga oshirish zarur

bo‘ladi.

Oliy ta‘lim muassasalarining ta‘lim dasturlari va malaka oshirish kurslarida gender tenglik masalalariga oid kurslarning ishlab chiqilishi va amalga kiritilishi yoshlarimizni mazkur qonunda ko‘zda tutilgan masalalarni to‘g‘ri talqin qilish, hayotda o‘zaro hurmat asosida faoliyat yuritishga o‘rgatadi. Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Gender stereotiplari tushunchasi va tasnifi. Gender inson ijtimoiy hayotining muhim kategoriyalaridan biri ekanligi kundalik voqelikda namoyon bo‘ladi. Bir jins vakillariga nisbatan xatti-harakat me‘yorlari va kutishlar qo‘llaniladi, bular boshqa jinsga nisbatan qo‘llaniladiganlardan ancha farq qiladi. Buning uchun alohida o‘g‘il bolalarni va qiz bolalarni, erkaklar va ayollarni ifodalovchi maxsus atama va so‘zlar qo‘llaniladi. Bularning barchasi ijtimoiy ongning alohida namoyon bo‘lish shakllari – stereotiplarda o‘z aksini topadi. An‘anaga ko‘ra, stereotip so‘zida ma‘lumotni qabul qilish va baholash asosidagi ma‘lum bir chizma (klishe) tushuniladi. Bu chizma muayyan bir hodisa, predmet yoki voqeani umumlashtirish vazifasini bajaradi, uning yordamida inson uzoq vaqt o‘ylanib qolmay, avtomatik ravishda harakatlanadi va baho beradi. Ijtimoiy stereotip tushunchasi insonning tevarak-atrofni umumlashtirgan holda baholash borasidagi qobiliyatini anglatadi, va u uning fikr-mulohazalari va notanqidiy xulosalariga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy andozalarning ijobiy funksiyasi ma‘lumot taqchilligi sharoitida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarga tez munosabat bildirishga, anglash jarayonini jadallashtirishga imkoniyat yaratadi. Lekin har doim ham ijtimoiy stereotip ob‘ektiv voqelikni aks ettira oladimi? Yo‘q, har doim ham emas. Ko‘pincha stereotiplar konservativ ta‘sir ko‘rsatadi, ya‘ni, insonlarning o‘zaro munosabatlaridagi jarayonlarda salbiy oqibatlariga olib keluvchi noto‘g‘ri bilim va tasavvurlarni shakllantiradi. Alohida individlarning tasnifini umumlashtirish va ularni bir insonlar va hodisalar guruhiga qo‘llash stereotiplash deb ataladi. E.Aronsonning fikricha, “stereotip asosida fikrlash – bu guruhda uning a‘zolari o‘rtasidagi real farqliklarga e‘tibor bermagan holda har qaysi insonga bir xil tasnif berishdir”⁵.

Turli stereotiplar bilan biz kundalik hayotimizda juda ko‘p duch kelamiz, ya‘ni, u yoki bu insonni yohud guruhni qandaydir “umumiy” fazilat va xususiyatlarga ko‘ra ifodalaymiz. Masalan, “norvegiyaliklar og‘ir-vazmin va sustkash, italiyaliklar esa – ehtirolarga boy va qoni qaynoq”, degan stereotiplar “milliy xarakter”ning o‘ziga xosligiga asoslanib, yuzaga kelgan. Bunday mulohazalar etnik stereotiplar deb ataladi. Shuningdek, irqiy stereotiplar, ma‘lum bir kasbiy guruhga, u yoki bu ijtimoiy qatlam vakiliga nisbatan stereotiplar ham mavjud. Jumladan, “yuqori tabaqa odamlari quyidagilarga qaraganda aqlliyoq” yoki “barcha shifokorlar – hayosiz” va hokazo. Maqsadimiz erkaklar va ayollarga xos bo‘lgan xususiyat va fazilatlar, ular o‘rtasidagi farqliklar to‘g‘risida umumlashtirilgan fikr-mulohazalarni

⁵ Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию/пер. с англ. Аспект Пресс. М., 1999. с. 307.

aks ettiruvchi stereotiplarni ko‘rib chiqishdir. Bunday stereotiplarni namoyon etishning oson yo‘li bor. O‘ylab ko‘ring, “ayol” so‘zi sizlarda qanday fikrlarni tug‘diradi? “Erkak” so‘zichi? Shubhasiz, sizlarning javobingiz quyida keltirilgan misolga yaqin bo‘lsa kerak.

A.V.Merenkovning ta’kidlashicha, bu “idrok etish xususiyati, maqsadga intiluvchanlikning, shuningdek, mazkur madaniyatda qabul qilingan muayyan jins vakili turmushi va faoliyatidagi me’yor va qoidalarni hisobga olgan holda inson xulq-atvorining dasturiy anglashilishidir”⁶.

Yana bir ta’rif: “Gender stereotiplar – bu mazkur jamiyat uchun aynan shu tarixiy davrdagi erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farqliklar to‘g‘risidagi tasavvurlar”⁷.

Yana bir ta’rifni I.S.Kletsina keltiradi: “Gender stereotiplari deganda, “erkaklarga xos” va “ayollarga xos” tushunchalarga mos keluvchi xulq-atvor modellari va xarakter xususiyatlari to‘g‘risidagi andozalashtirilgan tasavvurlar tushuniladi”⁸.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, “gender stereotiplari” tushunchasiga, birinchidan, erkaklar va ayollarni odatda ifodalovchi xususiyat va ta’riflar kiradi. Ikkinchidan, gender stereotiplarida erkak va ayollar jinsiga an’anaviy ravishda xos bo‘lgan me’yoriy xulqatvor namunalari mavjud bo‘ladi. Uchinchidan, gender stereotiplarida erkaklar va ayollar bir-birlaridan nima bilan farqlanishi to‘g‘risidagi odamlarning umumlashtirilgan fikri, mulohazasi, tushunchasi o‘z ifodasini topadi. Va nihoyat, to‘rtinchidan, gender stereotiplar ular mavjud bo‘lgan madaniy muhitga ham bog‘liqdir. Barcha gender stereotiplarni uch guruhga taqsimlasa bo‘ladi. Birinchisi – maskulinlik/feminlik (yoki femininlik) stereotiplari. Boshqacha aytganda, bu mardlik/latofatlik stereotiplar deb ataladi. Dastavval, maskulinlik (mardlik) va feminlik (latofatlik) tushunchalari nimani anglatishini ko‘rib chiqamiz. (Keyinchalik matnda bu ikki juft tushunchalar sinonim sifatida ishlatiladi: erkaklarga xos – maskulinlik, ayollarga xos – feminlik). I.S.Kon tomonidan taqdim etilgan “maskulinlik” atamasi ma’nosini tahlil qilishga asoslanib, feminlik va maskulinlik tushunchalariga berilayotgan mazmuni quyidagicha ifoda etish mumkin.

1. Maskulinlik va feminlik tushunchalari erkaklarga (maskulinlik) yoki ayollarga (feminlik) “xolisona xos bo‘lgan” (I.Konning ta’kidlashicha) ruhiy va xulq-atvoriy xususiyatlarni aks etadi.

2. Maskulinlik va feminlik tushunchasi turli ijtimoiy tasavvurlar, fikrlarni o‘z ichiga oladi, erkaklar va ayollar qanday va ularga qaysi xususiyatlar maqbul ekanligi aniqlanadi.

3. Maskulinlik va feminlik tushunchalarida ideal erkak va ideal ayolning me’yoriy qoliplari o‘z ifodasini topadi⁹.

Shunday qilib, birinchi guruhdagi gender stereotiplarni mardlik va latofatlik haqidagi tasavvurlar aksini topgan muayyan shaxsiy fazilatlar va ijtimoiy-psixologik xususiyatlar yordamida erkaklar va ayollarni tasniflovchi stereotiplar

⁶ Merenkov A.V. Социология стереотипов. – Екатеринбург: Изд-во Урал. Ун-та, 2001, с. 161.

⁷ Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent.: 2007. -B.46

⁸ Клецина И.С. Гендерная социализация. Учебное пособие. С.-Петербург, изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 1998. с. 19

⁹ Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent.: 2007. -B.48

sifatida belgilash mumkin. Masalan, ayollarga passivlik, bog‘liqlik, emotsionallik, konformlik kabi xususiyatlar, erkaklarga esa – faollik, mustaqillik, kompetentlik, jahldordik va hokazolar xos. Ko‘rib turganimizdek, maskulinlik va femininlik xususiyatlari qarama-qarshi qutblarga ega: faollik – passivlik, kuch – o‘jizlik. N.A.Nechaevaning tadqiqotlariga ko‘ra, ayolning an’anaviy ideali vafodorlik, sodiqlik, kamtarlik, nazokat, latofat, itoatkorlik kabi fazilatlarini o‘z ichiga oladi¹⁰. Xuddi shunday natijalar talabalarning erkaklar va ayollar to‘g‘risidagi ideal tushunchasini o‘rgangan Milliy universitet talabasining bitiruv ishida ham olingan. U olib borgan so‘rovnoma ishtirokchilarining aksariyati erkak va ayollarni an’anaviy nuqtai nazardan ifodalovchi fazilatlar va xususiyatlariga yondashganlar, masalan, ayol – muloyim, latofatli, sadoqatli, erkak esa – faol, ishonchli, kuchli⁸. Gender stereotiplarning ikkinchi guruhi oilaviy, professional va boshqa sohalarda muayyan ijtimoiy rollarni mustahkamlash bilan bog‘liq. Ayollarga, odatda, asosiy rollar sifatida oilaviy (ona, uy bekasi, turmush o‘rtog‘i) rollar, erkaklarga esa – professional rollar belgilanadi. I.S.Kletsina ta’kidlashicha, “erkaklar o‘z kasb-korida erishgan yutuqlariga qarab, ayollar esa – oilasi va bolalari mavjudligiga qarab baholanadi”⁹. Muayyan bir sohada (masalan, oilaviy) erkaklarga va ayollarga xos deb hisoblangan rollar majmui har xil. YUqorida ta’kidlab o‘tilgan “Gender rollarni anglashga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillar”¹⁰ tadqiqotida 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan 300 kishi o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilgan, natijada er-xotin o‘rtasida oilaviy majburiyatlarni taqsimlashda quyidagi differentsiatsiya paydo bo‘ldi. Jumladan, faqat ayollarga xos deb uyni tozalash, ovqat pishirish, kir yuvish va dazmol qilish, idish-tovoq yuvish kabi rollar ta’kidlangan. So‘rov ishtirokchilarining fikriga ko‘ra, oilada erkakning vazifasi pul topish, uyda ta’mirlash ishlarini bajarish, axlatni olib chiqishdan iborat. Gender stereotiplarining vazifalari. Har qanday andozalar ma’lum vazifalarni bajaradi. Gender stereotiplarning vazifalarida batafsil to‘xtalamiz. Demak, gender stereotiplari quyidagi asosiy funksiyalarni amalga oshiradi: • tushuntirish funksiyasi, • tartibga solish funksiyasi, • farqlovchi funksiyasi, • retranslyasiya funksiyasi, • himoyalovchi yoki o‘zini oqlovchi funksiyasi. Tushuntirish funksiyasi - sanab o‘tilganlar orasida eng oddiy, erkaklar va ayollarning sifatleri to‘g‘risidagi keng tarqalgan gender stereotiplari yordamida erkaklar yoki ayollarning xulq-atvorini namoyon etish uchun qo‘llaniladi. Regulyativ funksiya turli jinslarga mansub kishilarning xulqatvorida kuzatiladigan farqlar bilan bog‘liq. Masalan, xorijiy tadqiqotchilar tajriba o‘tkazib, shuni aniqlaganlarki, turli jinsga mansub kishilar yo‘lda qizil chiroqni kesib o‘tayotganlarida o‘zlarini har xil tutishar ekan. Misol uchun, ayollar yo‘lda bir o‘zlari ketayotganda, yo‘l qoidalarini kamroq buzganlar, lekin ular ko‘pincha buni boshqa qoidabuzarlar ketidan qilganlar. Ayollarning bunday harakatlari odatda ayollar “tartibli yo‘lovchi” hisoblanishlari, va shuning uchun yo‘l harakati qoidalarini kamroq buzishlari bilan izohlangan. Lekin “konformliroq”, ya’ni, guruh tomonidan ko‘rsatiladigan tazyiqqa moyil bo‘lganliklari tufayli ular boshqalarning ketidan qoidalarni

¹⁰ Нецаева Н.А. Идеал женщины в структуре гендерных картин мира //Гендерные тетради. Выпуск второй; СПб филиал Института социологии РАН. СПб., 1999, С.10.

buzishlari mumkin.

Shunday qilib, stereotiplar nuqtai nazaridan ularga xos deb hisoblangan xususiyatlar (ushbu vaziyatda tartiblilik va konformlik) xulq-atvorning o'ziga xos regulyatori vazifasini bajaradi. Farqlovchi funksiya barcha ijtimoiy stereotiplarning umumiy vazifasi hisoblanadi. Uning yordamida bir guruh a'zolari o'rtasidagi farqliklar kamaytiriladi va turli guruhlarning a'zolari o'rtasidagi farqliklar maksimal darajada oshadi. Agar erkaklar va ayollar turli mavqega ega ikki ijtimoiy guruh sifatida ko'rib chiqilsa, unda erkaklar odatda yuqori mavqega ega, ayollar esa – past mavqega ega guruhlar sifatida ta'riflanadi. Tabiiyki, bu borada ikki guruh o'rtasidagi farqliklar ortadi. Jumladan, yuqori mavqega ega erkaklar bilan ko'pincha tadbirkorlikdagi muvaffaqiyat va bilimdonlik fazilatlarini, past mavqega ega ayollar bilan esa – mehribonlik, hamdardlik, insoniylik kabi fazilatlar bog'lanadi. Lekin, ayrim g'arblik mualliflarning fikricha, “ayollarga xos stereotiplarning barcha ijobiy jihatlari (bag'rikenglik, ruhiy qo'llab-quvvatlash, ko'ngilchanlik va hokazo) – “kuch nuqtai nazarida” erishilmagan yutuqlarning o'rnini bosishdir, xolos”¹¹. Shunday qilib, erkaklar va ayollarni farqlash ko'pincha ularga xos deb hisoblangan xususiyatlarni keskin farqlanishiga olib keladi (masalan, erkaklarning kuchliligi – ayollarning zaifligi). Kundalik hayotimizda gender stereotiplarning farqlovchi funksiyasi xalq ijodiyotining jinslar o'rtasidagi u yoki bu farqlarni mubolag'a bilan ta'kidlab o'tuvchi erkaklar va ayollar to'g'risidagi hangomalar, hazil gaplar kabi “namunalarda” o'z aksini topadi. Ularda qarama-qarshi jins vakillaridagi salbiy jihatlarni bo'rttirishga ahamiyat beriladi, va, shu tariqa, bir jinsga mansub guruhlarning ichki birdamligini vujudga keltiradi. Retranslyasiya funksiya ijtimoiylashuv institutlari va agentliklari – oila, maktab, tengdoshlar, adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari va boshqalarning jinsiy-rolli stereotiplarni shakllantirish, namoyish etish (ko'rsatish), tarqatish va mustahkamlashdagi rolini aks etadi. Qayd etilgan ijtimoiy institutlar orqali jamiyat shaxsga nisbatan o'z jinsiga oid me'yoriy tasavvurlarga mos bo'lish uchun qanday qilish va nimalarni qilish borasida muayyan vazifalarni yuklaydi. Mana shunday yo'l-yo'riqlarvazifalar yordamida aslida insonning «jinsini shakllantirish» amalga oshiriladi

Himoyalovchi yoki o'zini oqlovchi funksiya, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, gender stereotiplarning “har bir narsaning mavjud holatini, shu jumladan, jinslar o'rtasidagi amaldagi tengsizlikni oqlash va himoya qilish”¹⁷¹² borasidagi urinish bilan bog'liq eng salbiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Uning yordamida erkaklar va ayollarning oila va jamiyatdagi tengsizlik holatini izohlash mumkin¹⁸. Mana, masalan, E.Aronsonning fikricha, ayollarni “uyda mehnat qilishga biologik nuqtai nazardan ko'proq moyilligi bor, va erkaklarning o'rnini ustun bo'lgan jamiyat ayollarni kelgusida ham changyutgichga bog'lab qo'yishini istaydi»¹⁹ degan

¹¹ Агеев В.С. Психологические и социальные функции полоролевых стереотипов. В кн. Психология семьи. Хрестоматия. Под ред. Д.Я. Райгородского, Издат. Дом «Бахрах-М», Самара, 2002. с. 291

¹² Агеев В.С. Психологические и социальные функции полоролевых стереотипов. В кн. Психология семьи. Хрестоматия. Под ред. Д.Я. Райгородского, Издат. Дом «Бахрах-М», Самара, 2002. с. 291

tushunchaga rioya etish nihoyatda qulay. Shunday qilib, erkaklar va ayollarning go‘yo «tabiiy xususiyatlari» to‘g‘risidagi o‘rnashib qolgan stereotiplar yordamida uydagi zo‘ravonlik, turli jinslar vakillariga nisbatan ikki xil standartlarning ko‘rinishlarini izohlash (aslida esa oqlash) mumkin. Demak, gender stereotiplari jinslar o‘rtasidagi u yoki bu farqlarni izohlash, mazkur farqlarni reprezentatsiya qilish, shuningdek, ularning mavjudligini oqlash zaruriyati bilan bog‘liq bir qator funksiyalarni bajaradi. Gender stereotiplar umumlashtirishning oqibati bo‘lib, erkaklar va ayollarning xulq-atvoriga nisbatan biz kutayotgan xatti-harakatlarni shakllantiradi

Mavzu yuzasidan savollar

1. Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida oila va nikoh munosabatlari barqarorligini ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlarini ayting?
2. Oila va nikoh munosabatlarida gender muvozanatni buzilishini oldini olish deganda nimani tushunasiz?

Mavzu yuzasidan tayanch so‘zlar

Gender tadqiqotlari - ayollar va erkaklarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy holati, gender rollari va gender munosabatlarini o‘rganish. Tadqiqot natijalari jamiyatdagi mavjud gender munosabatlariga ta‘sir ko‘rsatish siyosati, strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqish va rejalashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Gender munosabatlari xarakterli munosabatlar turidir ayollar va erkaklar o‘rtasida hokimiyatning tengsiz taqsimlanishi

Gender xurofoti - mavjudlik haqidagi stereotiplar jinsga asoslangan va tegishli ustunlik yoki pastlik "jinsiylarning manzili" deb ataladi.

Gender siyosati – jamiyat hayotining barcha jabhalarida ayollar va erkaklar tengligiga erishishga qaratilgan davlat va jamiyat faoliyati.

Ijtimoiy huquqlar — davlat tomonidan o‘zining barcha fuqarolari uchun kafolatlangan ijtimoiy ta‘minot huquqi (masalan, ishsizlik yoki qashshoqlik tufayli nafaqa olish huquqi).

Ijtimoiy muhit — insonning yashashi va ishlashi uchun uni o‘rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma‘naviy shartsharoitlar. Muhit keng ma‘noda (makromuhit) ijtimoiy-iqtisodiy tizimni - ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va tartib-qoidalar majmuini, jamiyatning ijtimoiy ong va madaniyatini o‘z ichiga oladi. Tor ma‘nodagi I. m. (mikromuhit) bevosita insonni qurshab olgan oila, mehnat, o‘quv va b. guruhlardan iborat.

Ijtimoiy qatlam — ijtimoiy jihatdan bir xil bo‘lmagan, jamiyatda alohida ijtimoiy guruhlar, ularning belgilanishi, sinfiy bo‘linish ifodasi. I. q. ijtimoiy sinflarga nisbatan ikkilamchi ijtimoiy voqea hisoblanadi. Sho‘rolar hokimiyati davrida sinflar orasida bo‘lgani singari, I. q. lar orasidagi tafovutlarni yo‘qotish g‘oyasi ilgari surilgan. Lekin ular saqlanib qolavergan. Mustaqillik sharoitida I. q. lar ham paydo bo‘lmoqda. Davlat ularga nisbatan mulkchilik shakllaridan qat‘iy

nazar, teng munosabatda bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

Asosiy adabiyotlar.

1. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi. Toshkent: O‘zbekiston 2003.
2. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent. 2007.
3. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyat-ning o‘rni / Najmidinova Karimaxon Usmonovna. – Toshkent: «Adolat», 2016. 224 b.
4. Гендер для “Чайников” -2. Книга. –Москва: “Zvenya”, 2009.
5. Эгорова Л. С., Степанова С. М. Гендерный подход в менеджменте: Учеб. пособие. Иваново: Юнона, 2002. – 100 с.
6. Зритнева Э.И., Клушина Н.П. Семейное воспитание: учебное пособие. – Москва: Владос. 2006. – 246 с.
7. Антонов А.И. Социология семьи. Учебник. - Москва: Инфра-м, 2012

Qo‘shimcha adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild.– Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 B.
2. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 B.
3. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 400 B.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent. O‘zbekiston, 2020. – 456 B.
5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent. O‘zbekiston, 2022. - 464.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «OILA» ilmiy-amaliy tadqiqot Markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.03.2018 y., 09/18/229/0950-son)
7. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. <http://www.uz.gov>.
8. Антонов А.И. Микросоциология семьи. - Москва, 2013.
9. Бурова, С.Н. Социология брака и семьи: история, теоретические основы, персоналии. Минск: Право и экономика, 2010. – 444 с.
10. Ганиева М.Х., Латипова Н.М., Алексеева В.С. Социальное обеспечение и защита детей и молодежи. – Ташкент: Янги авлод, 2017. – 315 с.
11. Жеребкин И.А. Ведения в гендерные исследование. Учебное пособие. М.: 2001.

12. Здравомыслова Э. А. , Тёмкина А. А. 12 лекций по гендерной социологии : учебное пособие / Э. Европейский университет в Санкт-Петербурге, 2015. – 768 с.
13. Гартановская И.Н. Гендерная социология. Учебник. Москва: 2005.
14. Черняк Е. М. Социология семьи: Учебное пособие. - Москва: Дашков и К, 2004. - 238 с.

SEMINAR MAVZUSI

3-mavzu. O'zbekistonda gender tarbiya-oila mustahkamligi mezoni

Reja:

1. Jamiyat hayotining barcha sohalariga qaratilgan tadqiqotlarda gender yondashuvning muhimligi.
2. Bolaning xulq-atvor me'yorlarini o'zida singdirishiga ta'sir etuvchi omillar: jamiyat an'analari, madaniyati, ochiq va yopiq diskriminatsiya (kamsitilish),
3. O'zbekistonda oilalarning shakllanishi va parchalanishida oila siklining sxemalarini yaratish imkoniyat

Jamiyat hayotining barcha sohalariga qaratilgan tadqiqotlarda gender yondashuvning muhimligi. Bolaning xulq-atvor me'yorlarini o'zida singdirishiga ta'sir etuvchi omillar: jamiyat an'analari, madaniyati, ochiq va yopiq diskriminatsiya (kamsitilish), O'zbekistonda oilalarning shakllanishi va parchalanishida oila siklining sxemalarini yaratish imkoniyatlari, Bola tarbiyasida an'anaviy (jinsiy-rolli tarbiya) va gender (ijtimoiy-jinsiy tarbiya) yondashuvlar.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Jamiyat hayotining barcha sohalariga qaratilgan tadqiqotlarda gender yondashuvning muhimligi nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Gender muvozanat deganda nimani tushunasiz?
3. Patriarxat, paternalistik, feministik, liberal, egalitar so'zlarini izohlang?
4. Boshqaruvda gender tenglik deganda nimani tushunasiz?
5. Boshqaruvda gender muvozanatni ta'minlash uchun nima qilish kerak deb o'ylaysizmi?
6. Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini qo'llab quvvatlashda nodavlat tashkilotlarning roli haqida fikringiz?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

Asosiy adabiyotlar.

1. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi. Toshkent: O‘zbekiston 2003.
2. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent. 2007.
3. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyat-ning o‘rni / Najmidinova Karimaxon Usmonovna. – Toshkent: «Adolat», 2016. 224 b.
4. Гендер для “Чайников” -2. Книга. –Moskva: “Zvenya”, 2009.
5. Эгорова Л. С., Степанова С. М. Гендерный подход в менеджменте: Учеб. пособие. Иваново: Юнона, 2002. – 100 с.
6. Антонов А.И. Социология семьи. Учебник. - Москва: Инфра-м, 2012

Qo‘shimcha adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild.– Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 B.
2. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 B.
3. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 400 B.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent. O‘zbekiston, 2020. – 456 B.
5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent. O‘zbekiston, 2022. - 464.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «OILA» ilmiy-amaliy tadqiqot Markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 27.03.2018 y., 09/18/229/0950-son)
7. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. <http://www.uza.uz>.
8. Антонов А.И. Микросоциология семьи. - Москва, 2013.
9. Бурова, С.Н. Социология брака и семьи: история, теоретические основы, персоналии. Минск: Право и экономика, 2010. – 444 с.
10. Ганиева М.Х., Латипова Н.М., Алексеева В.С. Социальное обеспечение и защита детей и молодёжи. – Ташкент: Янги авлод, 2017. – 315 с.
11. Жеребкин И.А. Ведения в гендерные исследование. Учебное пособие. М.: 2001.
